

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

TURG‘UNMIRZAYEV AZMIDDIN SHAMSITDIN O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract for doctor of philosophy (PhD)
in Economics**

Turg‘unmirzaev Azmiddin Shamsitdin o‘g‘li

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....

Тургунмирзаев Азмиддин Шамситдин угли

Пути повышения конкурентоспособности страховых компаний в условиях цифровой экономики.

Turgunmirzaev Azmiddin Shamsitdin ugli

Ways to Enhance the Competitiveness of Insurance Companies in the Digital Economy.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.30.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI

TURG‘UNMIRZAYEV AZMIDDIN SHAMSITDIN O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5280 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abduraxmonov Ilyos Xurshidovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **To'rayev Shavkat Shuxratovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sagdiyev Ravshan Sayfullayevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **Namangan Davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Tashkent international university huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.30.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "18" 04 kuni soat 10"⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895)131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya ishi bilan Tashkent international university Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (28 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895)131-55-55; faks: (99895)131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "24" 03 kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" 12 dagi 81 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon sug'urta bozorining keskin rivojlanishi va tarmoqning raqamli transformatsiyasi xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini bir necha barobarga oshirib sohada yangi institutsional o'zgarishlarga olib kelmoqda. Sug'urta xizmatlar bozoriga raqamli (sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli texnologiyalar, analitik ma'lumotlar tahlili) texnologiyalarning kirib kelishi raqamli xizmatlarni va mahsulotlarni manzilli taklif qilish imkoniyatlarini bir necha barobarga oshirib yubordi. Bunda sug'urta bozori subyektlari raqobatda ustunliklarga erishish uchun an'anaviy sug'urta maodellarini raqamli faoliyat yuritish modellarga samarali integratsiyasini ta'minlab kelishmoqda. Xalqaro ekspertlarning prognozlariga ko'ra, "raqamli sug'urta bozori 2025-yilda 84,2 milliard AQSH o'sishni tashkil etgan holda yiliga (2024-2028) o'rtacha 12,8 foiz o'sishi ta'kidlangan"¹. Sug'urta kompaniyalari biznes jarayonlarini raqamlashtirish ularning raqobatbardoshligini oshirishda samarali raqamli yechimlarni taqdim etib kelmoqda.

Jahon sug'urta bozorida kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishda sohaga yangi raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlar natijasida sug'urta kompaniyasi faoliyatini tubdan o'zgartirishga, ularning raqamli integratsiyasi va transformatsiyasi natijasida raqobatbardoshligini oshishiga xizmat qilmoqda. Tub o'zgarishlar kompaniyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga yo'naltirilgan faoliyatni yo'lga qo'yish, kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini boshqarish, kompaniyaning ekotizimlarni joriy etish, xizmatlar ko'rsatish ko'lamini kengaytirish, sug'urta sohasidagi firibgarliklarni oldini olish, sug'urta to'lovlarini tez, adolatli va manzilli to'lab berish, sug'urtada tarif siyosatini samarali boshqarish, raqamli xizmatlar turlarini ko'paytirish, moslashtirilgan sug'urta mahsulotlarini taqdim etish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biriga aylangan.

O'zbekiston milliy sug'urta xizmatlar bozorida sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish va biznes jarayonlarni raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida kompaniyalar faoliyatini avtomatlashtirish va takomillashtirish, kompaniyalar faoliyatiga zamonaviy raqamli (sun'iy intellekt, blokcheyn, analitik ma'lumotlar tahlili) yechimlarni samarali joriy etish, risklarni boshqarishning yangi modellarini qo'llash, davlatning rivojlanish strategiyalaridan kelib chiqib rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida "davlat tomonidan sug'urta tizimini qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda sug'urta sohasiga raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishning moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy

¹ <https://www.technavio.com/report/digital-insurance-market-industry-analysis>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston 2030”strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son“Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori, 2021-yil 23-oktyabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-dekabrda 694-son “Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sug‘urta bozorini raqamlashtirish, kompaniyalar faoliyatining raqamli samaradorligini oshirish orqali raqobatbardoshligini ta‘minlashga oid nazariy va amaliy mulohazalar, uslubiy va fundamental jihatlari xorij olimlaridan bo‘lgan A.Braun, R.Jia, Y.Elgargouh, M.Chbihi Louhdi, I.Fedorovych, O.Rykhalsky, Ye.V.Alekseeva, YU.T.Axvlediani, L.A.Orlanyuk-Malitskoy, A.A.Siganova, A.G.Oxrimenko, Ye.V.Tokar³ ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar H.Sobirov, S.G‘ulomov, T.Teshabayev, X.Shennayev, I.Abduraxmonov, S.Umarov, R.Azimov, I.Kenjaye, O.Yuldashev, T.Baymurov, G.Xalikulova, U.Imomov, G.Adilovalarning⁴

³Braun, A., Jia, R. InsurTech: Digital technologies in insurance. Geneva Pap Risk Insur Issues Pract 50, 1–7 (2025). <https://doi.org/10.1057/s41288-024-00344-x>. Elgargouh, Y.; Chbihi Louhdi, M.R.; Zemmouri, E.M.; Behja, H. Knowledge Management for Improved Digital Transformation in Insurance Companies: Systematic Review and Perspectives. Informatics 2024, 11, 60. <https://doi.org/10.3390/informatics11030060>. Fedorovych, I., Rykhalsky, O., & Poltavskiy, D. (2025). Digital transformation of insurance industry: Implications of AI tools integration. International Journal of Organizational Leadership, 14(First Special Issue), 508-522. <https://doi.org/10.33844/ijol.2025.60497>. E. V. Алексеева. Цифровизация страхования: анализ, проблемы и направления развития. Вестник Алтайской академии экономики и права №6 2023. 145-151 стр. Ахвледiani Ю.Т. Современный страховой рынок и перспективы цифрового страхования. Вестник Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова. 2024;(6):80-86. <https://doi.org/10.21686/2413-2829-2024-6-80-86>. Страхование в условиях цифровой экономики: наука, практика, образование: монография / под ред. Л. А. Орланюк-Малицкой, А. А. Цыганова. – М. : Инфра-М, 2022. 258 стр. Охрименко А.Г., Токар Е.В. Влияние цифровых технологий на развитие страховой деятельности // Научный результат. Экономические исследования. 2024. Т.10. №2. С. 80-87. DOI: 10.18413/2409-1634-2024-10-2-0-9

⁴ Sobirov H.R. Sug‘urta: 100 savol va javob. – T.: “Mehnat”, 1998. – 160 b., Gulyamov S.S., Abdullaev O.M. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar//Toshkent-2019-T.: Fan. T.Z. Teshabayev. Management information systems in the complex of marketing support of product quality in the ai economy / Proceedings on Engineering Sciences. Vol. 07, No. 2 (2025) 1137-1144, Shennayev X.M. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2021. – 84 b.; Abduraxmanov I.X. Teoriya i praktika straxovaniya: Uchebnik, – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. -696 str., Umarov S.A. Iqtisodiyotni

tadqiqotlarida sugʻurta xizmatlarini saradorligini oshirishning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida sugʻurta kompaniyalarini xizmatlarini rivojlantirish orqali raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sugʻurta bozorini raqamlashtirish sharoitida sugʻurta kompaniyalari faoliyati samaradorligini oshirishning nazariy asoslarini tadqiq etish;

sugʻurta xizmatlarining samaradorligini baholash mezonlari va koʻrsatkichlarini aniqlash;

raqamli texnologiyalarning (Big Data, AI, blokcheyn, mobil ilovalar va boshqalar) sugʻurta xizmatlariga taʼsirini baholash;

sugʻurta bozorini raqamlashtirishda kompaniyalar xizmatlari samaradorligini oshirish va sugʻurta bozorini raqamlashtirishning xorij amaliy tajribasini oʻrganish;

Oʻzbekiston sugʻurta kompaniyalari faoliyatini raqamlashtirilishi va rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari va shartlarini aniqlash;

ilgʻor xorijiy tajribalar asosida kompaniyalar faoliyatini raqamlashtirish orqali sugʻurta xizmatlarini takomillashtirish;

sugʻurta kompaniyalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini joriy etishdagi toʻsiqlar va imkoniyatlarni aniqlash;

sugʻurta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy modellarini oʻrganish;

Oʻzbekiston sharoitida raqamli texnologiyalar asosida kompaniya xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obʻekti raqamli iqtisodiyot sharoitida sugʻurta kompaniyalari va ularning xizmatlari bilan bogʻliq faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sugʻurta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayoni va ular orqali sugʻurta xizmatlarining sifati hamda samaradorligini oshirish bilan bogʻliq moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

modernizatsiya qilish sharoitida Oʻzbekistonda sugʻurta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2012. – 49 b.; Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sugʻurtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2022. – 86 b.; Yuldashev O.T. Oʻzbekistonda hayot sugʻurtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2023. – 75 b.; Baymurotov T.M. Oʻzbekistonda sugʻurta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: -2004. – 22 b.; Xalikulova G.T. Sugʻurta tashkilotlarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish yoʻnalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2024. – 96 b.; Kenjayev I.Gʻ. Sugʻurta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yoʻllari. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TMI, 2019; Imomov U.Gʻ. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida bank sugʻurtasi va uni rivojlantirish yoʻllari. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2020. – 53 b.; Adilova G.D. Iqtisodiy globallashtirish sharoitida sugʻurta xizmatlarini takomillashtirishning yoʻnalishlari. Iqtisodiyot fanlari boʻyicha f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2020.-60 b.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, guruhlash, qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy va matematik modellash, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sugʻurta kompaniyalarida raqamli texnologiyalar asosida shakllangan “raqamli ekotizim” (marketpleys) modelini joriy etish orqali elektron sugʻurta shartnomalarini rasmiylashtirish hamda sugʻurta mahsulotlarini onlayn sotish (e-polis) jarayonlarini amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

jismoniy shaxslarni sugʻurtalash jarayonida elektron sugʻurta xizmatlari sifatini oshirish, sugʻurta mahsulotlarini xarid qilish jarayonini soddalashtirish va mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida blokcheyn texnologiyasi (DLT) hamda sunʼiy intellekt asosida ishlovchi identifikatsiya, avtorizatsiya va verifikatsiya tizimlari orqali mijozlarni roʻyxatdan oʻtkazishda “Face ID” biometrik identifikatsiyalash tartibi taklif etilgan.

yangi va zamonaviy sotuv instrumentlarini joriy etish orqali chuqur analitik tahlilni talab qilmaydigan sugʻurta turlarini raqamli platformalar orqali taqdim etish natijasida rasmiylashtiriladigan sugʻurta shartnomalariga 15 foizlik “Cashback” taqdim etish asoslangan;

sugʻurta kompaniyalarida sugʻurta daʼvolarini onlayn tarzda taqdim etish, koʻrib chiqish va hal etish jarayonlarining samaradorligi hamda shaffofligini oshirish maqsadida “bulutli texnologiyalar” va “Big Data” imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan holda sugʻurta maʼlumotlarini saqlash, qayta ishlash va boshqarishni taʼminlovchi “raqamli arxiv” tizimini joriy etish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli platforma va marketpleys modeli orqali sugʻurta xizmatlarini onlayn rasmiylashtirish va sotish jarayonlarini joriy etish, mijozlarga qulaylik yaratib, kompaniyaning raqobatbardoshligini va xizmatlar sifatini sezilarli darajada ishishi asoslab berilgan;

blokcheyn texnologiyasi va sunʼiy intellekt yordamida “Face ID” biometrik identifikatsiyasini joriy etish orqali jismoniy shaxslarga elektron sugʻurta xizmatlarini soddalashtirib, mijozlarga tezkor, xavfsiz va qulay xizmat koʻrsatishni asoslab berilgan;

raqamli platformalar orqali sugʻurta mahsulotlarini onlayn sotib olishda 15% cashback taqdim etish orqali sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talabni oshirib, jismoniy shaxslar uchun sugʻurta bozori samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi asoslab berildi;

bulutli texnologiyalar va Big Data yordamida sugʻurta daʼvolarini onlayn koʻrib chiqish va raqamli arxiv yaratish orqali xizmat koʻrsatish sifatini oshirib, operatsion xarajatlarni 25% ga kamaytirishga erishdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan usullar va yondashuvlar toʻgʻriligi, maʼlumotlarning ishonchliligi va rasmiy manbalardan olinganligi, masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, sugʻurta kompaniyalarining rasmiy saytlarida eʼlon qilingan maʼlumotlari va yillik hisobotlari, mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislar tomonidan olib borilgan tahlillar hamda xulosa va takliflarning

tegishli sug'urta kompaniyalari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan sug'urta kompaniyalarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish hamda sug'urta xizmatlarini raqamli makonda taqdim etishga qaratilgan maxsus mustaqil ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlarin iraqamlashtirish, ular samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish va dasturlar ishlab chiqishda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion sug'urta mahsulotlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sug'urta kompaniyalarida raqamli texnologiyalar asosida shakllangan "raqamli ekotizim" (marketpleys) modelini joriy etish orqali elektron sug'urta shartnomalarini rasmiylashtirish hamda sug'urta mahsulotlarini onlayn sotish (e-polis) jarayonlarini amalga oshirish mexanizmiga doir taklifi "O'zbekinvest" EISK AJ sug'urta kompaniyasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 20-avgust 2025-yildagi 01/2-02/3522-son ma'lumotnomasi). Natijada, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish 4 barobarga qisqargan, mijozlar uchun sug'urta mahsulotining qo'shimcha qiymati yaratilgan, hamda sug'urtalash jarayoni soddalashtirildi va mijozlar bilan uzluksiz aloqalar o'rnatilishiga erishilgan;

jismoniy shaxslarni sug'urtalash jarayonida elektron sug'urta xizmatlari sifatini oshirish, sug'urta mahsulotlarini xarid qilish jarayonini soddalashtirish va mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida blokcheyn texnologiyasi (DLT) hamda sun'iy intellekt asosida ishlovchi identifikatsiya, avtorizatsiya va verifikatsiya tizimlari orqali mijozlarni ro'yxatdan o'tkazishda "Face ID" biometrik identifikatsiyalash tartibini qo'llashga doir taklifi "O'zbekinvest" EISK AJ sug'urta kompaniyasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 20-avgust 2025-yildagi 01/2-02/3522-son ma'lumotnomasi). Natijada, kompaniyada blokcheyn protokollari qo'llanilishi oqibatida shartnoma oldi ekspertiza, anderrayting jarayonlari tez va xavfsiz shartnomalarni rasmiylashtirishga erishilgan, hamda kompaniya 2024-yildagi sug'urta shartnomalarining 27 foizi blokcheyn protokollari orqali rasmiylashtirilgan;

yangi va zamonaviy sotuv instrumentlarini joriy etish orqali chuqur analitik tahlilni talab qilmaydigan sug'urta turlarini raqamli platformalar orqali taqdim etish natijasida rasmiylashtiriladigan sug'urta shartnomalariga 15 foizlik "Cashback" taqdim etishga doir taklifi "O'zbekinvest" EISK AJ sug'urta kompaniyasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 20-avgust 2025-yildagi 01/2-02/3522-son ma'lumotnomasi). Natijada, raqamli platformalar orqali sug'urta mahsulotlarini sotib olish ko'rsatkichlari 2024-yilda o'tgan 2023-yilga nisbatan 32

foizga oshgan, hamda raqamli xizmatlar va imtiyoz tizimlarining joriy etilishi kompaniyaga foyda olish bilan birga, raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar bazasini kengaytirishga olib kelgan;

sug'urta kompaniyalarida sug'urta da'volarini onlayn tarzda taqdim etish, ko'rib chiqish va hal etish jarayonlarining samaradorligi hamda shaffofligini oshirish maqsadida "bulutli texnologiyalar" va "Big Data" imkoniyatlaridan foydalanishga asoslangan holda sug'urta ma'lumotlarini saqlash, qayta ishlash va boshqarishni ta'minlovchi "raqamli arxiv" tizimini joriy etishga doir taklifi "O'zbekinvest" EISK AJ sug'urta kompaniyasi faoliyatiga joriy etilgan ("O'zbekinvest" EISK AJning 20-avgust 2025-yildagi 01/2-02/3522-son ma'lumotnomasi). Natijada, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqish, sug'urta da'volari jarayonini samarali boshqarish, ma'muriy va operatsion harajatlarni kamaytirish, himoyalangan hujjatlar aylanishi, raqamli arxiv va raqamli ish yuritish texnologiyalaridan keng foydalanish asosida 2024-yilga kelib 2023-yilga nisbatan 25 foizga operatsion xarajatlarni kamaytirishga, shuningdek da'volarni ko'rib chiqish muddatlarini esa 15 kundan uch ish kuniga qisqartirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 3 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Sug'urta bozorini raqamlashtirish sharoitida sug'urta kompaniyalari faoliyatining nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda sug'urta xizmatlarni raqamlashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari, sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini baholashning nazariy-metodologik yondashuvlari, raqamli transformatsiya sharoitida sug'urta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishning xorijiy tajribasi va ularning iqtisodiy tahlili bayon etilgan.

Xalqaro amaliyotda sug'urta mahsulotlari va xizmatlarini raqamlashtirish sug'urta kompaniyasining biznes jarayonlarini raqamlashtirishdan boshlanadi. Bu

jarayonlar sug'urta kompaniyasining ichida boshlanib tashqi faoliyatida tugiydi, ya'ni mijozga mahsulot sotish va uni iste'mol qilish jarayonlarini qamrab oladi. Sug'urta kompaniyalarining ichki jarayonlarini raqamlashtirish bu odatda sug'urtaga qabul qilinayotgan risklar reestridan boshlanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida risklar bilan bog'liq ma'lumotlarning ko'payishi, ularni saralash, hisoblash va tahlil qilish usullarini rivojlanishi sug'urtalashni tubdan o'zgartirib yuboradi. Bunga ko'plab raqamli texnologiyalar ijobiy ta'sir ko'satadi. Ularni sug'urta sohasida "Inshurtex" (InsurTech) deb atashadi va ular sug'urtaning raqamli ko'rinishini ifodalovchi asosiy texnologiyalarga aylanib bormoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlarida "InsurTech atamasi sug'urta sohasini yangilashga xizmat qilayotgan yangi texnologiyalar va innovatsion biznes modellarni qamrab olishi, shu jumladan raqamli kanallar, avtomatlashtirilgan jarayonlar, ma'lumot tahlili va yangi mahsulot shakllarining paydo bo'lishi"⁵ni bildirishi ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisobotida "Big Data va AI sug'urtada samardorlikni oshirish, firibgarliklarni aniqlash, riskni optimal baholash imkoniyatlarini oshirish, shuningdek optimal baholash, maxfiylikni va moliyaviy inklyuziyani ta'minlash nuqtai nazaridan yangi risklarni ham keltirib chiqarishi"⁶ ta'kidlab o'tilgan.

1-jadval

InsurTechni paydo bo'lishiga olib kelgan omillar va sabablar tahlili⁷

№	Omil	Qisqacha mazmun	Sug'urta bozoriga ta'sir mexanizmi	Kutilgan natija/samara
1	Mijoz xulq-atvori o'zgarishi (Z-avlod)	Tezkorlik, 24/7 formatda xizmat olishga talabning oshishi	Mijozlar an'anaviy agentlik/ofis kanalidan raqamli kanallarga ko'chishi	Onlayn sotuvlarning, xizmat tezligining va mijoz qoniqishining oshishi
2	Ma'lumotlar infratuzilmasi kengayishi	Tashqi ma'lumot manbalari (telematika, sensorlar, mobil iz, tranzaksion ma'lumotlar) kengaydi	Risk baholash detallashadi; anderryayting va narxlashda data-driven modellar qo'llaniladi	Risk baholash aniqligi, portfel sifatining yaxshilanishi
3	Raqamli kanallar raqobatining paydo bo'lishi	Marketpleyslar, agregatorlar, fintex-platformalar sug'urta sotuv zanjirini qayta qurmoqda	Sotuvlarning platformalashuv: "ekohamkorlar" bilan integratsiya	Kanal diversifikatsiyasi, tranzaksion xarajatlar kamaydi, raqobat kuchayadi
4	Regulyatorlar nazoratidan chiqib ketishlar	Iste'molchi huquqlari, adolat, kiber xavfsizlik, ma'lumot himoyasi talablari kuchaydi	Qonunchilik/nazorat raqamli mahsulot va algoritmlar uchun yangi talablar	Shaffoflik oshdi, risklar boshqaruvi kuchayadi, bozor ishonchi barqarorlashdi

⁵ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2017/12/technology-and-innovation-in-the-insurance-sector_0f8e3d13/ddf9df41-en.pdf.

⁶ https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/01/the-impact-of-big-data-and-artificial-intelligence-ai-in-the-insurance-sector_1fb2946f/c822ee53-en.pdf.

⁷ Emperik adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shuningdek, sugʻurta sohasida raqamlashtirishni nazariy tushinishda texnologiyalar yaratadigan qoʻshimcha qiymat zanjiri yondashuvi asosiy metodologik asos sifatida qaraladi. Sababi raqamlashtirish bir vaqtning oʻzida sugʻurtaning taklif tomonini va talab tomonini birdek oʻzgartirib yuboradi. Halqaro tashkilotlar hisobotlarida taʼkidlanganidek, raqamli texnologiyalar sugʻurta kompaniyalarining ichki biznes jarayonlari va sugʻurtalanuvchilar bilan taʼsir kanallarini qayta barpo qilish orqali samaradorlikni oshirishini nazarda tutadi.

Bunda qoʻshimcha qiymat zanjiri rakursidan qaralganda sugʻurtada raqamlashtirish ikki yoʻnalishda olib borilishi boʻyicha yondashuvlar keng tarqalgan, jumladan:

1) Inson aralashuvi omilini kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarini raqamlashtirish va tezkor xizmat koʻrsatish (Straight-Through Processing);

2) Maʼlumotlarga asoslangan holda risklarni boshqarish (Data-driven risk management).

2-jadval

“InsurTech” rivojlanish bosqichlari⁸

1-bosqich	(2010-2015)	Distributsiya va marketing davri. Bu davrda asosiy eʼtibor sugʻurta polislarini onlayn sotish, agregator saytlar va narxlarni taqqoslash platformalarini yaratishga qaratildi. Maqsad vositachilarni (agent va brokerlarni) qisqartirish va mijozga toʻgʻridan-toʻgʻri chiqish edi.
2-bosqich	(2015-2020)	Texnologik chuqurlashuv davri. Bu bosqichda sunʼiy intellekt, Big Data va blokcheyn texnologiyalari sugʻurtaning ichki jarayonlariga anderrayting va daʼvolarni boshqarishga tatbiq etila boshlandi. Lemonade, Root Insurance kabi toʻliq raqamli sugʻurta kompaniyalari paydo boʻldi.
3-bosqich	(2020-2025)	Ekotizimlar va integratsiya davri. Hozirgi bosqichda “Embedded Insurance” (oʻrnatilgan sugʻurta) trendi ustunlik qilmoqda. Sugʻurta mahsuloti boshqa xizmat yoki tovar (masalan, Tesla avtomobili yoki aviachipta) sotib olinayotganda avtomatik ravishda taklif etiladi. Shuningdek, prediktiv tahlil orqali risklarni oldindan bashorat qilish va oldini olishga urgʻu berilmoqda.


Sugʻurta bozorini, kompaniyalar faoliyatini (xizmat koʻrsatish, sugʻurta mahsuloti) raqamlashtirish sohada yangi konsepsiyaning paydo boʻlishiga olib kelidi. Bu konsepsiya xalqaro ekspertlar tomonidan taqdim etilgan “Open insurance” konsepsiyasidir. Nazariy va ilmiy tadqiqotlarda “Open insurance” bu sugʻurta sohasidagi raqamli transformatsiyasining yuqori texnologik jarayonlarini aks ettiradi. Tizim asosida mijozlardan olgan maʼlumotlarini (sugʻurta summasi, sugʻurta obyekti, sugʻurta muddati, sugʻurta mukofoti, risklar reestri va boshqalar) ular roziligi asosida hamkorlarga (raqamli platformalar, texnologik vositachilar, startaplar va boshqalarga) maʼlumotlarni integarsiya qilish mexanizmi yotadi. Tizim toʻgʻidan-toʻgʻri maʼlumotlarni uzatishni emas, balki maʼlum protokollar asosida (huquqiy, texnologik) maqsadli va nazoratli maʼlumotlar integratsiyasini anglatadi.

Xalqaro nazorat organlari va soha ekspertlari “Open insurance”ni texnologik hamkorlar bilan maʼlumotlar integratsiyasini taʼminlash maqsadida sugʻurta qiymat zanjirini yaratish sifatida qarashadi. Shuningdek, ular bunda ikki asosiy maqsadning

⁸ Emperik adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi

o‘zaro muvozanatini ta‘minlanish muhimligin ta‘kidlaydilar. Bularga sug‘urtalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) huquqlarini himoya qilish (shaxsiy ma‘lumotlarning daxlsizligi, ularning shaffofligi, ma‘lumotlardan g‘araz niyatlarda foydalanmaslik, kiberxavfsizlik masalalari), ikkinchisi esa mahsulot va xizmatlarda innovatsiya uchun raqobat muhitini shakllantirishdir. Ya‘ni bunda “Open insurance” arxitekturasi “innovatsiyalar uchun ochiqlik” va “mijozlar uchun xavfsizlik” doirasidagi tarkibiy muvozanatga tayanadi”⁹

Open insurance (API) orqali sug‘urta ma‘lumotlarini almashish modeli



1-rasm. “Open insurance” (API) orqali sug‘urta ma‘lumotlarini almashish modeli¹⁰

“Open insurance”ni amaliyotda ishlash modellarini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning yaqqol ishlovchi namunasi sifatida “European Insurance and Occupational Pensions Authority” taklif etgan “insurance dashboard” keltiriladi. Ular bu tizimni mijozlar uchun turli kompaniyalar xizmatlarini va ularga oid ma‘lumotlarni bir joyda yig‘ib, samarali interfeysda ko‘rsatish sharoitini beruvchi texnologik agregator sifatida qaraydi”¹¹. Holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, bunday texnologik yechim ya‘ni panel bir tomondan sug‘urta mahsulolari iste‘molchilarini ma‘lumotlarga ega bo‘lishini va tanlovlar soni hamda sifatini oshirsa, ikkinchi tomondan esa, ma‘lumotlar almashinuvi ko‘plab risklarni keltirib chiqarishi mumkin

⁹ EIOPA (European Insurance and Occupational Pensions Authority). Open insurance: accessing and sharing insurance-related data: Discussion Paper. Frankfurt am Main, 2021.

¹⁰ Emperik ma‘lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

¹¹ <https://www.eiopa.europa.eu/system/files/2023-07/EIOPA%20Open%20Insurance%20use%20case%20-%20Insurance%20Dashboard.pdf>.

bo‘ladi. Shu sababli xalqaro tashkilotlar va soha ekspertlari “Open insurance” tashkil etishda ma’lumotlarning texnologik dizayni, tizimga kirish, ma’lumotlar olish, xavfsilik protokollari aniq belgilashni reglament asosida amalga oshiridi. Bunday holat esa “Open insurance” barqaror ishlashi uchun muhim texnologik, huquqiy shartlar sifatida ko‘rsatiladi.

Raqamli ekotizimlar sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishi shunchaki gipoteza emas, balki aniq iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlar bilan isbotlangan faktdir.

3-jadval

An‘anaviy sug‘urta biznes-modeli va raqamli ekotizim modeli

Ko‘rsatkich	An‘anaviy model	Raqamli ekotizim modeli
Biznes model	Chiziqli (Pipeline): Mahsulot yaratish -> Agent -> Mijoz	Tarmoqli (Platform): Ko‘p tomonlama aloqalar, qiymat birgalikda yaratiladi
Mijoz bilan aloqa	Epizodik (yiliga 1-2 marta, polis sotib olish yoki da‘vo paytida)	Uzluksiz (Continuous): Har kuni ekotizim xizmatlari orqali
Mahsulot rivojlantirish	Standartlashtirilgan, qat‘iy tariflar	Personallashtirilgan, dinamik tariflar (AI asosida)
Tarqatish kanallari	Agentlar, brokerlar, ofislar (Physical)	Mobil ilovalar, API integratsiyasi, Super-apps (Phygital)
Ma’lumotlar yig‘ish	Tarixiy ma’lumotlar (demografiya, da‘vo tarixi)	Real vaqtdagi ma’lumotlar (IoT, Telematics, wearables)
IT roli	Qo‘llab-quvvatlovchi funktsiya (Back-office)	Biznes drayver, asosiy aktiv (Core business)
Chegara xarajatlar	Yuqori (har bir yangi mijoz uchun qog‘oz, ofis xarajati)	Nolga yaqin (Zero Marginal Cost)
Masshtablanish	Chiziqli o‘shish, resurslar bilan cheklangan	Eksponensial o‘shish (Network effect hisobiga)
Innovatsiya sur‘ati	Past, byurokratiya tufayli sekin	Yuqori, Open Innovation va API orqali tezkor
Sheriklik modeli	Shartnomaviy, cheklangan	Simbiotik, keng qamrovli integratsiya
Raqobat afzalligi	Aktivlar hajmi va kapital	Ma’lumotlar (Data) va mijoz tajribasi (CX)
Rentabellik	Pasayib boruvchi (raqobat va xarajatlar tufayli)	Oshib boruvchi (ko‘lam samarasi va cross-selling tufayli)

Raqamli ekotizimlar avtomatlashtirish va miqyos iqtisodi (economies of scale) orqali operatsion xarajatlarni keskin kamaytiradi. Bu sug‘urta biznesining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi – "Combined Ratio" (Kombinatsiyalashgan koeffitsiyent) ning yaxshilanishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sug‘urta bozori subyektlarining raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘rsatkichlarining amaliy holati tahlili**” deb nomlangan bo‘lib bu bobda O‘zbekiston sug‘urta bozorining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, sug‘urta kompaniyalari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning iqtisodiy tahlili, sug‘urta bozori konsentratsiyasi va raqobat mihitini HHI indeksi asosida baholash tahlili keltirilgan.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi besh yil ichida institutsional jihatdan sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Bazar ishtirokchilari tarkibidagi o‘zgarishlar regulyator tomonidan qo‘yilgan kapitallashuv talablarining oshirilishi, moliyaviy

barqarorlik mezonlarining kuchaytirilishi va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan izohlanadi. 2020-yilda faoliyat yuritgan 40 ta sugʻurta tashkilotidan 2024-yil yakuniga kelib 33 tasi bozorda qoldi, bu esa sohada konsolidatsiya jarayonlari kechayotganidan dalolat beradi.

2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston sugʻurta bozorida sugʻurta mukofotlarining barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatildi. Jami sugʻurta mukofotlari hajmi 2020 yildagi 2,21 trln so‘mdan 2024 yilda 9,77 trln so‘mga yetdi. O‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati (CAGR - Compound Annual Growth Rate) ushbu davrda 44.9% ni tashkil etdi, bu esa milliy iqtisodiyotning boshqa sektorlariga nisbatan yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Biroq, inflyatsiya darajasini hisobga olganda, real o‘shish sur‘atlari nisbatan pastroq, ammo baribir ijobiy dinamikani saqlab qolmoqda.

Bozor tarkibida umumiy sugʻurta tarmog‘i dominantlik qilmoqda. 2024-yilda umumiy sugʻurta mukofotlari 9,48 trln so‘mni tashkil etib, jami portfelning 97,1% ini egalladi. Hayot sugʻurtasi tarmog‘i esa, aksincha, so‘nggi yillarda pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2022-yilda hayot sugʻurtasi mukofotlari 1,52 trln so‘mga (jami bozorning 24,5%) yetgan bo‘lsa-da, 2023-yildan boshlab soliq imtiyozlarining bekor qilinishi va tartibga solishdagi o‘zgarishlar natijasida keskin kamayish yuz berdi. 2024-yil yakuniga ko‘ra, hayot sugʻurtasi mukofotlari atigi 286 mlrd so‘mni tashkil etib, bozordagi ulushi 2,9% gacha tushib ketdi.

4-jadval

O‘zbekiston sugʻurta bozorida sugʻurta mukofotlari dinamikasi (2020–2024 yy.)

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	CAGR 2020-24 (%)
Jami sugʻurta mukofotlari (mlrd so‘m)	2,213	3,733	6,232	8,060	9,770	44,9%
Umumiy sugʻurta	1,879	3,016	4,707	7,737	9,484	49,8%
- Majburiy	338	476	524	632	665	18,4%
- Ixtiyoriy	1,541	2,540	4,183	7,105	8,819	54,6%
Hayot sugʻurtasi	334	717	1,525	322	286	-3,8%
- Majburiy	-	-	-	35	48	-
- Ixtiyoriy	334	717	1,525	287	238	-8,1%
Hayot sugʻurtasi ulushi (%)	15,1%	19,2%	24,5%	4,0%	2,9%	-
Yillik nominal o‘shish (%)	-	68,7%	66,9%	29,3%	21,2%	-
Real o‘shish (inflyatsiya hisobiga) (%)	-	53,2%	51,4%	19,5%	11,4%	-

O‘zbekiston sugʻurta bozori yuqori darajadagi konsentratsiya bilan ajralib turadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, bozorning TOP-10 kompaniyasi jami sugʻurta mukofotlarining qariyb 78,4% (CR10) qismini jamlagan. Yetakchi beshlik (CR5) ulushi esa 58,6% ni tashkil etadi. Bu holat bozorda oligopoliya belgilari mavjudligini va kichik kompaniyalar uchun raqobat muhiti murakkabligini anglatadi.

“O‘ZBEKINVEST” eksport-import sugʻurta kompaniyasi AJ faoliyati tahlili kompaniyaning bozordagi yetakchi pozitsiyasini saqlab qolish va samaradorlikni oshirish borasidagi sa’y-harakatlarini ko‘rsatmoqda. Kompaniyaning "Transformatsiya-2024" strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish va xizmat ko‘rsatish

sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini bermoqda. 5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, "O‘zbekinvest" kompaniyasining sug‘urta mukofotlari oxirgi 5 yil ichida qariyb 5 barobarga oshgan. Sug‘urta to‘lovlarining o‘shish sur‘ati (8,5 barobar) mukofotlar o‘shidan yuqori bo‘lganligi sababli, Loss Ratio ko‘rsatkichi 17,1% dan 30,1% gacha ko‘tarilgan. Bu kompaniyaning mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarish darajasi oshganligini va haqiqiy sug‘urta himoyasini taqdim etayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, investitsiya portfelining barqaror o‘shishi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta‘minlamoqda.

5-jadval

“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining asosiy ko‘rsatkichlari tahlili (2020-2024 yillar)¹²

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024/2020 o‘zgarish
Sug‘urta mukofotlari (mlrd so‘m)	263,4	385,2	560,8	874,6	1 270,6	4,8 barobar
Sug‘urta to‘lovlari (mlrd so‘m)	45,1	68,3	102,5	198,4	382,4	8,5 barobar
Investitsiya portfeli (mlrd so‘m)	1 200,5	1 450,2	1 890,6	2 350,4	2 840,1	2,4 barobar
Sof foyda (mlrd so‘m)	35,2	42,6	65,8	98,4	135,6	3,8 barobar
Loss Ratio (%)	17,1%	17,7%	18,3%	22,7%	30,1%	+13.0 p.p.

Sug‘urta bozorining rivojlanish darajasini baholashda eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bu sug‘urta zichligi (Insurance Penetration) hisoblanadi. O‘zbekistonda sug‘urta mukofotlarining YAIMga nisbati 2024 yilda 0,7–0,9% atrofida bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan (7,35%, OECD 2025) keskin farq qiladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 6-8% ni, qo‘shni Qozog‘istonda esa 1,5% ni tashkil etadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti (Insurance Density) O‘zbekistonda 2024-yilda taxminan \$18,5 ni tashkil etdi. Solishtirish uchun, Qozog‘istonda bu ko‘rsatkich \$92, Rossiyada \$100 dan yuqori, jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi esa \$800 dan oshadi. Bu raqamlar O‘zbekiston sug‘urta bozorida ulkan o‘shish salohiyati mavjudligini, ayniqsa, chakana sug‘urta segmentida hali foydalanilmagan imkoniyatlar ko‘pligini anglatadi.

Chuqur analitik tahlilni talab qilmaydigan sug‘urta turlarini raqamli platformalar orqali taqdim etish natijasida rasmiylashtiriladigan sug‘urta shartnomalariga 15 foizlik “Cashback” taqdim etish bo‘shlandi. Mazkur jaraen (myaliflik taklifi asosida) asosida raqamli platformalar orqali sug‘urta mahsulotlarini sotib olish ko‘rsatkichlari 2024-yilda o‘tgan 2023-yilga nisbatan 32 foizga oshdi. Natijada raqamli xizmatlar va imtiyoz tizimlarining joriy etilishi kompaniyaga foyda olish bilan birga, raqobatbardoshlikni oshirish hamda mijozlar bazasini kengaytirishga olib keldi.

6-jadval shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda sug‘urta mukofotlari nisbatan past o‘sdii (+3,0%), ammo onlayn shartnomalar soni 25,1% ga o‘sdii. Bu raqamli kanallar orqali sotilayotgan polislarining o‘rtacha qiymati past (mikrosug‘urta, qisqa muddatli

¹² “O‘zbekinvest” kompaniyasining yillik moliyaviy hisobotlari va NAPP ma‘lumotlari.


mahsulotlar) ekanligini ko'rsatadi. Offlayn shartnomalar ham o'sganligi (21,6%) esa korporativ segment hali ham ustunligini tasdiqlaydi.

6-jadval

“O‘ZBEKINVEST” kompaniyasining ko‘rsatkichlar dinamik tahlili (2023-2024 yillar)¹³

Ko‘rsatkichlar	2023	2024	Absolyut o‘zgarish	Nisbiy o‘zgarish (%)
Sug‘urta mukofotlari, mln so‘m	1 233 859	1 270 569	+36 710	+3,0
Tuzilgan shartnomalar (onlayn), dona	389 234	486 789	+97 555	+25,1
Tuzilgan shartnomalar (offlayn), dona	411 009	499 968	+88 959	+21,6
Sug‘urta da‘volari, dona	8 901	4 769	-4 132	-46,4
Sug‘urta to‘lovlari, mln so‘m	356 234	389 567	+33 333	+9,4
Loss Ratio (%)	28,9	30,7	+1,8	-
Qayta sug‘urtalash ulushi, %	55,8	55,8	0	0

Da‘volar sonining qisqarishi (-46,4%) juda ijobiy natijdir. Bu kompaniyaning firibgarlikka qarshi AI tizimi, blokcheyn texnologiyalari va mijozlarni verifikatsiya qilish jarayonlarini mukammallashtirishi samarasi. Loss Ratio biroz oshganligi (28,9% → 30,7%) to‘lovlarning nominal qiymatining (inflyatsiya hisobida) oshishi bilan bog‘liq, lekin bu ko‘rsatkich jahon standartlariga mos (30-35% o‘rtacha yirik xalqaro kompaniyalar uchun).



3-rasm. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali etishiladigan samaradorlik tizimi¹⁴

Sug‘urta kompaniyalari samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni miqdoriy jihatdan baholash maqsadida ko‘p omilli regression tahlil o‘tkazildi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida sug‘urta mukofotlari hajmi (Premium Volume, mlrd so‘m) tanlandi, mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa quyidagilar belgilandi:

X_1 – YAİM, trillion so‘m;

X_2 – Internet penetratsiyasi, % (internet foydalanuvchilarning umumiy

¹³ "O‘ZBEKINVEST" kompaniyasi hisoboti (2024), muallif hisoblagan.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

aholi o'rtasidagi ulushi);

X_3 – Moliyaviy savodxonlik indeksi (0-100 shkalasi);

X_4 – Raqamlashtirish indeksi (E-Government Development Index – EGDI);

X_5 – Inflyatsiya, %.

Tahlil uchun 2018-2024 yillar davridagi yillik ma'lumotlar ishlatildi.

Regression model quyidagi ko'rinishda tuzildi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 \cdot X_1 + \beta_2 \cdot X_2 + \beta_3 \cdot X_3 + \beta_4 \cdot X_4 + \beta_5 \cdot X_5 + \varepsilon \quad (2.1)$$

Quyidagi natijalar olindi (7-jadval):

7-jadval

Regression modelning koeffitsiyentlari va statistik ahamiyati

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	Standart xato	t-statistika	P-qiymat	Xulosa
Konstanta (β_0)	-2 345,7	678,4	-3,46	0,021	Ahamiyatli
YAIM (X_1)	145,6	23,8	6,12	0,001	Juda ahamiyatli
Internet (X_2)	58,3	12,4	4,70	0,005	Juda ahamiyatli
Moliyaviy savodxonlik (X_3)	32,1	8,6	3,73	0,015	Ahamiyatli
EGDI (X_4)	4 567,2	987,3	4,63	0,006	Juda ahamiyatli
Inflyatsiya (X_5)	-78,4	23,1	-3,39	0,023	Ahamiyatli (salbiy)

Manba: Muallif tomonidan ekonometrik tahlil (EViews, $R^2=0,972$).

Regression modelning aniqlash koeffitsiyenti $R^2 = 0,972$ ni tashkil etadi, bu tanlangan omillar sug'urta mukofotlari o'zgarishining 97,2% ini tushuntirishini anglatadi. F-statistika ($F = 52,4$, $p < 0,001$) modelning umuman ahamiyatligini tasdiqlaydi.

Omillarning ta'siri:

1. YAIM (X_1): Eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil. YAIM ning 1 trillion so'mga o'sishi sug'urta mukofotlarini o'rtacha 145,6 mlrd so'mga oshiradi. Bu ko'rsatkichning statistik ahamiyati juda yuqori ($p = 0,001$). Yuqori YAIM o'sishi aholining daromadlarini, biznes faolligini va korporativ sug'urta talabini oshiradi.

2. Internet penetratsiyasi (X_2): Internet foydalanuvchilar ulushining 1% ga o'sishi mukofotlarni 58,3 mlrd so'mga oshiradi ($p = 0,005$). Raqamli sug'urta platformalari kengayishi va onlayn sotuvlar o'sishi bunga sabab.

3. Moliyaviy savodxonlik (X_3): Aholining moliyaviy savodxonligi 1 punktga oshganda mukofotlar 32,1 mlrd so'mga o'sadi ($p = 0,015$). Sug'urtaning ahamiyatini tushunish sug'urta mahsulotlariga talabni oshiradi.

4. Raqamlashtirish indeksi EGDI (X_4): EGDI ning 1 punktga oshishi 4 567,2 mlrd so'm mukofot o'sishiga olib keladi ($p = 0,006$). Elektron hukumat xizmatlari rivojlanishi bilan sug'urta xizmatlarining raqamlashuvi ham kuchayadi.

5. Inflyatsiya (X_5): Inflyatsiyaning 1% ga o'sishi mukofotlarni 78,4 mlrd so'mga

kamaytiradi ($p = 0,023$). Inflyatsiya aholining xarid qobiliyatini pasaytirib, sugʻurta xizmatlariga boʻlgan talabni kamaytiradi.

Ushbu natijalar shuni koʻrsatadiki, sugʻurta bozorini rivojlantirish uchun nafaqat makroiqtisodiy oʻsishni taʼminlash, balki raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internet penetratsiyasini oshirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Raqamli iqtisodiyot sharoitida sugʻurta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish yoʻnalishlari”** deb nomlangan boʻlib, bu bobda innovatsion raqamli texnologiyalarni sugʻurta kompaniyalariga tatbiq etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish yoʻllari, raqamli iqtisodiyot sharoitida sugʻurta kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishning strategik modeli va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

McKinsey Global Institute tahlillariga koʻra, sugʻurta sohasida toʻliq raqamli transformatsiya amalga oshirilgan kompaniyalar raqobatchilariga nisbatan daromadlarni 20-30 % ga oshirishga, operatsion xarajatlarni 25-40 % ga kamaytirishga va mijozlar qoniqishi darajasini ikki barobar oshirishga erishgan. Ushbu muvaffaqiyatlarning asosida sunʼiy intellekt (Artificial Intelligence, AI), mashinaviy oʻqitish (Machine Learning, ML), blokcheyn (Blockchain), katta maʼlumotlar tahlili (Big Data Analytics), buyumlar interneti (Internet of Things, IoT) va raqamli platformalar ekotizimlari yotadi. Sunʼiy intellekt (AI) va mashinaviy oʻqitish (Machine Learning, ML) bugungi kunda sugʻurta sohasidagi eng kuchli texnologik drayver hisoblanadi va raqobatbardoshlikni oshirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston sharoitida bu texnologiyani joriy etish orqali andarrayting tezligini kamida 40 % ga oshirish, insoniy xato darajasini 70% ga kamaytirish va kadrlar sarfini 25-30 % ga qisqartirish imkoniyati mavjud.

Oʻzbekistonda AI texnologiyalarini sugʻurta sohasiga joriy etishning bir qator imkoniyatlari va cheklovlari mavjud. Imkoniyatlar qatorida: (a) yosh va tez oʻsib borayotgan bozor – raqamli yechimlarni joriy etish uchun qulay muhit, (b) yuqori mobil internet penetratsiyasi – 2024 yilda 89 %, bu mobil ilovalar orqali xizmat koʻrsatish uchun yaxshi shart, (c) davlat tomonidan raqamli transformatsiyaga kuchli qoʻllab-quvvatlash – PQ-108 qarori, Raqamli Oʻzbekiston 2030 strategiyasi, (d) yetarlicha raqobat – 33 ta kompaniya, bu innovatsiyalarni joriy etishga undaydi.

Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar taklif etiladi: birinchidan, milliy sugʻurta maʼlumotlar bazasini yaratish va barcha kompaniyalar uchun maʼlumotlar almashinuvi standartlarini joriy etish; ikkinchidan, oliy oʻquv yurtlari bilan hamkorlikda “AI in Insurance” yoʻnalishi boʻyicha mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini yoʻlga qoʻyish; uchinchidan, xalqaro texnologik kompaniyalar (Google Cloud, Microsoft Azure, AWS) bilan hamkorlik qilish va ularning tayyor yechimlaridan foydalanish; toʻrtinchidan, tartibga soluvchi organlar tomonidan “AI Ethics” boʻyicha yoʻriqnomalar ishlab chiqish va qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Blokcheyn texnologiyasi sugʻurta sohasida ishonch, shaffoflik va tezkorlikni taʼminlovchi inqilobiy vosita hisoblanadi. Uning asosiy qoʻllanilish shakli – bu "Smart-kontraktlar" (aqli shartnomalar) boʻlib, ular maʼlum bir shartlar bajarilganda (masalan, parvozning kechikishi, ob-havo oʻzgarishi, yoki boshqa trigger hodisalari) toʻlovlarni avtomatik ravishda amalga oshiradi. Blockchain – bu markazlashmagan (decentralized),

taqsimlangan (distributed) va o'zgarmas (immutable) ma'lumotlar bazasi bo'lib, u hech qanday markaziy nazorat organi (bank, notarius, yoki sug'urta kompaniyasining o'zi) yordamisiz tranzaksiyalarni qayd qiladi va tasdiqlaydi.

